

Mavzu: Ajdodlarimiz merosini o'rganamiz

Maqsad: o'quvchilarga ma'naviy tarbiya berib, ularda merosimizni, qadriyatlarimizni qadriash hissini tarbiyalash, o'quvchilarning tafakkurini, dunyoqarashini, nutqini rivojlantirish.

Dars uslubi: guruhlarda ishlash, bellashuv

Dars jihozi: A. Navoiy va Z. Bobur hayoti va ijodiyotiga doir bukletlar, rasmlar

Tadbirning borishi

I. Tashkiliy qism

O'qituvchi: Qani mening bolalarim,
Mehri daryo buloqlarim.

Vatanning tayanchi
Ustozining ishonchi
Zukko, oqil, donolar
Bir-biridan biyronlar

Bugun hamma sog'lommi?
Barcha darsga tayyormi?

O'quvchilar:
Barchamiz sog'-omonmiz
Darsga barcha tayyormiz
Topshiriqlarni bering
Natijani ham ko'ring

O'qituvchi: Bir haftada necha kun?

O'quvchilar: Yetti kun-u yeti tun

O'qituvchi: O'ylab ko'rib bolalar
Ayting bugun qaysi kun?

O'quvchilar: Haftaning kunlariga
Har xil nomlar qo'yilgan
Bugun juma kunini
"Ma'naviyat" kuni deyishgan

O'qituvchi: Aytchi, qizim, Nozima
Ma'naviyat o'zi nima?

Nozima: Ma'naviyat-bu ustozim
Vijdon, imon degani
Mustahkam urodayu
E'tiqod ham degani

O'qituvchi: Ayting dono yurtboshi
Yilni qanday nomlabdi?

O'quvchilar: Bizning dono yurtboshi
Xalqning g'omini yeydi
Farzandlari sog'lom yurt
Qudratli bo'lar deydi
Onalar gar sog' bo'lsa
Farzand sog'lom bo'ladi
"Sog'lom ona bola" yili
Deb bejiz aytilmadi

O'qituvchi: Bugun biz tinch, ozod va obod Vatanda yashab ta'lim –tarbiya olib, kelajakda vatanimizning yanada gullab yashnashi uchun o'z hissamizni qo'shishimiz zarur. O'z o'tmishini

bilmagan inson kelajakda komil inson bo'lib yetisha olmaydi. Bugungi darsimizni"

Ajdodlarimiz

merosini o'rganamiz"deb atashimiz ham bejiz emas. Chunki fevral oyida buyuk bobolarimiz Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburning tavallud kunlarini nishonlaymiz. Shu sababli

bugungi darsimizni ikki guruhga bo'linib musobaqa shaklida o'tmoqshimiz.

I guruh: Alisher Navoiy

II guruh Zahiriddin Muhammad Bobur

1-shart: Guruhlar tanishuvi

Alisher Navoiy gurugi:

G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish,

El anga shafiqu mehribon bo'lmas emish.

Oltin qafas ichra gar qizil gul bitsa

Bulbulga tikondek oshyon bo'lmas emish

Guruh shiori:

Oz-oz o'rganib dono bo'lur

Qatra-qatra yig'lib daryo bo'lur

Zahiriddin Muhammad Bobur guruhi:

Tole yo'q jonimg'a balolig' bo'ldi

Har ishni ayladim xatolig' bo'ldi

O'z yurtini qo'yib Hind sori yuzlandim

Yo rab netayin ne yuz qarolig' bo'ldi

Guruh shiori:

Har kim-ki, vafo qilsa, vafo topqusidur

Har kim-ki, jafo qilsa, jafo topqusidur.

Yaxshi kishi ko'r magay yomoliq hargiz

Har kim-ki yomon bo'lsa jazo topqusidur

2 shart: Allomalar haqida ma'lumotlar berish

1. Alisher Navoiy 1441 yilda 9-fevralda Hirot shahrida tug'ilgan

2. Bobomiz Alisher Navoiy bolalik chog'laridanoq hammaning e'tiboriga tushganlar

3. Eng avvalo odobli bo'lganlar

4. Ko'p kitob o'qiganlar, minglab misra g'zallarni yod bilganlar

5. Kichiklikda yozgan she'rlariga ham ustozlari qo'yil qolishgan

6. Ona tilini yaxshi bilganlar

7. Fors va arab tillarini yaxshi bilganlar

Zahiriddin Muhammad Bobur guruhi:

1. Bobur 1483 yilda Andijonda tug'ilgan

2. Bobur 12 yoshlaridayoq taxtga o'tirgan

3. Zahiriddin Muhammad Bobur shoir, adolatli podsho bo'lgan

4. Bobur shohlik bilan birga tabiat shaydosi ham bo'lgan

5. Bobur Hindistonda podsholik qilgan davrida uning tabiatini asrash, ardoqlash maqsadida bog'lar yaratdi

6. Bobur o'zi barpo etgan bog'lar bilan faxrlanar, bu go'zallikdan zavqlanar edi.

7. U o'z hayoti haqida o'zining "Boburnoma" asarida yozib qoldirgan

3-shart: Ruboiy aytish

Alisher Navoiy guruhi

Jonimdagi “jim” ikki doling’a fido,
bo’lg’il,
Andin so’ng “alif” toza niholingg’a fido.
“Nun”I dog’I andarin hilolingg’a fido,
bo’lg’il
Qolg’on ikki nyqta ikki xolingg’ fido.

Yo’q dahrda bir besaru somon mendek,
O’z holig’a sargashtayu hayron mendek.
G’am ko’yida xonumoni vayron mendek
Ya’niki, aloxonu alomon mendek

Ko’z bilan qoshing yaxshi, qabog’ing yaxshi
Yuz bila so’zing yaxshi, dudog’ing yaxshi
Eng bilan menging yaxshi,saqoqing yaxshi
Bir-bir ne deyin, boshdin ayog’ing yaxshi

Zahiriddin Muhammad Bobur guruhi:

Ey dil,ne uchun qoshingda men xor o’ldim
Yuz mehnatu anduh bila yor o’ldum
Vasling bila bisyor sevindum avval
Hajring bila oqibat giriftor o’ldum

Ishqingda ko’ngul xarobdur men ne qilay
Hajringda ko’sum purobdur mmen ne qilay
Jismim aro pechu tobdur, men ne qilay?
Jonimda ko’p iztirobdur men ne qilay?

Hijron qafasida jon qushi ram qiladur
G’urbat bu aziz umrni kam qiladur
Ne nav bitayfiroqu g’urbat sharhin
Kim ko’z yoshi nomaning yuzin nam qiladur

To dahrdu, dahr uza sulton

To olam erur, olam uza xon bo’lg’il.
Davron elining jismida ham jon

Ham jonlarig’a moyai darmon bo’lg’il.

Ey jism, aning ko’yini paydo qilako’r,
Ey ko’ngul, o’shul ko’yni ma’vo qilako’r.
Ey ko’r, sen aning yuzin tamoshoqilako’r
Ey ashk,aning ko’yi sari oqilako’r

Zohid,sanga-hur, manga-jonona kerak
Janar sanga bo’lsin manga mayxona kerak
Mayxona aro soqiyu paymona kerak
Paymona necha bo’lsa to’la yona kerak

Hush aqlig’a zor-u muftalo ko’z ermus
Jonim bila ko’nglumba balo ko’z ermus
Fahm ayladim emdi, Boburo ishq ichra
Ko’zimni qorortqon qaro ko’z ermis

Jismimda isitma kunda mahkam bo’ladur
Ko’zdin qochadur uyqu,chu aqsham bo’ladu
Har ikkalasi g’amim bila sabrimdek
Borg’on sari bu ortadur ul kam bo’ladur

Sen gulsen-u men haqir bulbuldurmen
Sen shu’lasenu ul shulag’a men kuldurmen
Nisbat yo’qdur deb ijtinob aylamakum
Shahmen elga, vale sanga quldurmen

4-shart: Sahna ko’rinishi . Alisher Navoiy guruhi.

Husayn Boyqaroning oldig’a Chin Mochin mamlakatining podshosidan elchi kelibdi

Elchi:Sultonim siz hurmatli zoti oliylariga ikki dona pichoq berib yubordilar.Ularning
ikkoviyambir xil sop, bir xil tig’libo’lib, qay biri podshohniki, qay biri vazirniki ekanligini
aytib berishingizni so’raydilar.

Sulton vazirlarni yig’ib,ulardan so’rabdi, ammo ular topa olmabdilar.

Podshoh:-Do’stim Mir Alisher bo’lganida shuncha xaloiqni to’plabovora bo’lib
yurmasdik.Shunday donishmand odamni badarg’a qilib, kunim sizlardek nodonlarga qolgan
ekan-da, vodarig’I

Bosh vazir:- Olampanoh,ko’p kuyunavermang.Bir emas,qirq vaziringiz bor.Bizga muhlat
bering,inshoollo, mushkulingizni ozon qilib, yegan tuzimizni oqlaymiz.

Podsho: -Bo'lmasa 3kun muhlat,shu 3 kun ichida pichoqlar kimniki ekanligini topsalaring yaxshi, yo;qsa qirqovingni bir qilib tilla dorga torttiranman.

Vazirlar maslahatlashib Mir Alisherning oldiga yo'l olibdilar.

Vazir: _ Xullas, Hirotdek shahri azimda bu masalani yecha oladigan ahli donnish topilmadi, endi butun umid sizdan. O'zingiz yordam bermasangiz, holimiz xarob, mavlono.

Alisher Navoiy:- Bo'lmasa gap bunday. Hoziroq saroyga qaytib borib, biror joyga o't yoqasizlar. O'sha pichoqlarning har ikkoviniyam o'tga toblaysiz, shunda pichoqlarning biri terlaydi, ikkinchisi esa terlamaydi.Ana shu terlagan pichoq podshoniki bo'ladi, chunki ko'p ishlatilmaydi. Unisi esa vazirniki, chunki vazirning pichog'I ko'p urintirilgan.

Vazirlar podsho saroyida.

Podsho: - Xo'sh, topdilaringmi?

Vazir: -Ha, taqsir, topdik. Pichoqlarni olovda toblab ko'rish kerak.Olovda terlagan pichoq podshoniki bo'ladi,terlamagani esa vazirniki.

Podsho: - Rostini aytinglar,bu gap o'zlaringdan chiqdimi yo sizlarga birov aytdimi?

Vazirlar: - O'zimiz topdik, taqsir.

Podsho:-Nega bo'lmasa avvalroq aytmadan, uch kun muhlat so'radingiz? Shu 3 kun ichida saroyda bittangning ham qorangni ko'rmadim.Chamasi birorta donishmandni axtarib topib, maslahat so'raganga o'xshaysizlar. Senlarning bu qovoq kallalaringdan kunduz kuni chiroq yoqib qidirsayam zig'ircha aql topilmasligini juda yaxshi bilaman-ku. Meni laqillatmoqchi bo'lyapsizlarmi hali?

Vazir:-Bir qoshiq qonimizdan keching, olampanoh. Ochig'ini aytsam, o'sha kuni kechasi tush ko'ribman. Tushimda oppoq soqolli, malla sochlibir piri muborak qoshimga kelib"Ko'p qayg'urmanglar,pichoqlarning kimga tegishli ekanligini aniqlashdan osoni yo'q" deb o'sha gaplarni o'rgatib ketgan edi.

Podsho:-Yolg'on gaplaring uchun dorga osaman, rostini aytinglar.

Vazir:-Buni biz Mir Alisherdan so'rab bilib oldik.

Podsho:-Baringni yig'sa,Mir Alisherning bir mo'yigayam arzimas ekansizlaru yana kelib-kelib shunday alloma bilan bellashasizlar-a? Ahvollaring shu ekan, uni g'iybat qilishni kim qo'yibdi sizlarga. Sen g'alamislarni gapiga kirib,qushdek beozor do'stimning dilini og'ritgan mening o'zim ahmoq. Hozirroq borib Mir Alisherdan uzr so'rab uni saroyga olib kelaman va saltanatimizning muhri muboragini unga topshiraman.

Sahna: Zahiriddin Muhammad Bobur guruhi:

Boburning to'ng'ich farzandi Humoyun tun bo'yi alahlab behush yotdi. Saroy tabiblari ham bu dardga davo topolmaydi,og'ir paytda Boburga suyanib o'rgangan odamlar uning o'zi bu dardga chora topishiga ishonishadi. Keksayib qolgan Shayxulislom Boburning yoniga keladi.

Shayx: Hazrati oliylari, ko'p g'am chekmang,parvardigor g'oyibdan shifo yuborg'usidir. Tabiblardan ish chiqmadi. Endi Xudo yo'lga dunyo molidan tasadduq qilmoq kerak.

Bobur: Qaysi moldan?

Shayx: Jon omon bo'lsa, javohir topilur, o'shal olmos yaxshi tasadduq bo'lg'ay.

Bobur: Kohinurmi Taqsir, kimga tasadduq qilaylik?

Shayx: Murtazo Ali mozoriga. Din yo'liga....

Bobur: Taqsir, o'sha olmos azizmi yoki mening jonim?

Shayx: Nechun unday deysiz hazratim? Unday olmoslarning yuztasidan siz afzalroqsiz.

Bobur: Minnatdormen, unday bo'lsa Humoyunga men o'zimni qurbon qilmoqchiman. Faqat bu qurbonni zarur bo'lsa, Parvardigorning o'zi olsin. (Bobur Humoyunning atrofida uch marta aylandi) Humoyun jigarbandim, Xudo sening shu dardingni sendan olib, menga bersin.

Humoyun: Otajon (g'uldiraydi)

Bobur: Ey Parvardigor! Menki Boburmen agar jon berish mumkin bo'lsa, umri jonimni Humoyunga qurbon qildim. Azroil mening jonimni olsinu, Xudo Humoyunga shifo bersin.

5-shart: Erkin mavzu.

6-shart: Xulosa

Guruhlarni baholash. Darsga yakun yasash.

Chirchiq shahar
11-umumta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi
M.A. Ernazarovaning maktab
kutubxonachisi Z Niyazaliyeva bilan
hamkorlikda
“Ajdodlarimiz merosini o'rganamiz”
mavzusida o'tkazgan tadbir ishlanmasi

